

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUOLLI KUCHLAR TIZIMINI SHAKLLANISHINING DASTLABKI BOSQICHLARI.

**Davronov Abdulloh Norpo‘lat o‘g‘li**  
**Qarshi davlat universiteti doktoranti**

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar tizimining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillarda O‘zbekiston o‘zining mudofaa salohiyatini mustahkamlashga alohida e‘tibor bergan. Maqola tarixiy hujjatlar, arxiv ma‘lumotlari va sobiq harbiy rahbarlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar asosida yozilgan. Tadqiqot, shuningdek, mudofaa tizimining o‘zgarishlarini, yangi harbiy doktrinalarning qabul qilinishini va Qurolli Kuchlar tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Maqola O‘zbekistonning strategik mudofaa rejalari va harbiy siyosatining rivojlanish bosqichlarini yoritib beradi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Qurolli Kuchlari, mudofaa tizimi, harbiy doktrina, mustaqillik davri, strategik mudofaa rejalari, harbiy siyosat.

### - **Kirish qism (Introduction).**

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tabiat in‘om etgan, mehnatkash xalqimiz tomonidan bunyod etilgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni, mustaqillik, xavfsizlik va hududiy yaxlitlikni himoya qiluvchi, barqaror va izchil demokratik rivojlanishning ishonchli va mutahkam kafolati bo‘la oladigan milliy armiyani shakllantirish davlat siyosatining bosh masalalari sifatida qaraldi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov Qurolli Kuchlarining asoschisi va Oliy Bosh qo‘mondoni sifatida og‘ir va murakkab vaziyatga qaramay, kun tartibiga har tomonlama ta‘minlangan, professional, zamonaviy talab va standartlarga javob beruvchi milliy Qurolli Kuchlarni tashkil etish masalasini qo‘ydi va bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

### - **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).**

XX asrning 80-yillarining ikkinchi yarmida sobiq Ittifoqda ro‘y bergan qayta qurish siyosati va “sovuq urush”ning salbiy oqibatlarini mamlakat siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bir qatorda uning muhim tayanchi bo‘lgan Qurolli

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Kuchlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Natijada, Qurolli Kuchlarni ham isloh qilish kabi muammoli masalalar paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishish arafasida milliy armiyani tashkil etish “O‘zbekistonlik harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish 1989–1991 yillarda O‘zbekiston matbuotida keng yoritila boshlagan”[1]. O‘zbekistonda harbiy tizimni isloh qilish va takomillashtirish bo‘yicha ilk qadam O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining “Umumiy harbiy majburiyat to‘g‘risida”gi SSSR qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirish borasida takliflari dastlabki qadam edi. Mazkur qonunga muvofiq, armiyani tubdan isloh qilish, armiya tizimida va chegara, ichki qo‘shinlarda xizmatni o‘tay olmaydigan fuqarolar uchun muqobil xizmat (qo‘shindan tashqari xizmat)ni joriy etish zarurligi, O‘zbekistondan harbiy qurilish qismlariga chaqiriluvchilarni tinch harbiy xizmatni o‘tash uchun faqat respublika yoki Turkiston Harbiy okrugi hududidagi harbiy qismlarga yuborish masalasi ko‘tarildi[2].

Mazkur qarorni bajarilishi ko‘rib chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumining 1990 yil 5 maydagi yig‘ilishida mamlakatimiz yosh bo‘lajak askarlarini harbiy xizmatga tayyorlash bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish, harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning sifat jihatdan takomillashtirish maqsadida barcha darajadagi chaqiruv komissiyalar tarkibiga O‘zbekiston SSR va mahalliy sovetlar xalq deputatlarini qo‘shimcha ravishda kiritish yuzasidan qaror qabul qilindi[3]. Mustaqillikka erishish arafasida ijtimoiy-siyosiy muammolar va munosabatlar keskinlashgan davr bo‘lib, o‘sha davr davriy matbuotini o‘qigan har qanday inson buni sezish va anglashi qiyin emas.

1990 yil 4 sentabrda Prezident I.Karimov respublika yoshlarini harbiy xizmatni o‘tash tartiblarini takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonga imzo chekadi. Unga ko‘ra haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilayotgan O‘zbekiston SSR fuqarolarining huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, ularning oilalari manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlash, shuningdek, jumhuriyat yoshlarini harbiy xizmatga chaqirishni va xizmatni o‘tashini takomillashtirish maqsadida 1990 yil kuzgi chaqiriqdan boshlab o‘zbekistonlik yigitlarni respublikadan tashqarida joylashgan harbiy qurilish qismlariga chaqirish to‘xtatildi, ularni SSSR Qurolli Kuchlariga tegishli Ittifoq idoralarning respublika hukumati bilan tuzilgan shartnoma asosidagina jalb etishlari belgilab qo‘yildi.

**- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

1991 yil 31 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi tarixiy qonunning 6 – moddasiga binoan davlatimiz halqaro huquqning subyekti sifatida o‘z Qurolli Kuchlarini tashkil etish huquqiga ega ekanligini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 6 sentabrdagi Farmoniga asosan mamlakatda Mudofaa ishlari vazirligi tuzilishini o‘tkinchi bir holat deb hisoblagan G. Kondratyev Mudofaa vazirining huzuriga vajoat bilan kirib, g‘azabini yashirmay: “Turkiston harbiy okrugi 1867 yildan beri bu yerda turgan, bundan keyin ham turadi”, deya Turkiston harbiy okrugi binosidan O‘zbekiston bayrog‘ini va yangi peshtaxtani olib tashlashni talab qiladi. Talabi bajarilmagan taqdirda Moskvaga murojat etishi va shaxsan respublika Prezidenti Islom Karimovga ham aytishini bildiradi. O‘sha kungacha Turkiston harbiy okrugi qo‘mondonlari uchun respublika barcha rahbarlarining eshiklari doim ochiq edi. O‘shanda birinchi bor Turkiston harbiy okrugi qo‘mondoni Prezident huzuriga kira olmaydi. Unga Prezident fikrini aytishadi: respublika mudofaasi bilan bog‘liq barcha masalalarni mudofaa vaziri orqali hal qiladi. Kondratyev barcha savollar bilan mudofaa vaziri yoki mudofaa masalalari bilan shug‘ullanuvchi Prezident maslahatchisiga murojaat etishi mumkin[4].

O‘zbekiston mustaqil bo‘lgani, zamon o‘zgarayotgani tan olishni istamagan Kondratyev “yotib qolguncha otib qol” qabilida ish tuta boshlaydi. U O‘zbekistonda qolib xizmatni davom etirish istagini bildirgan ofitserlarni sotqinlikda ayblab, jamoatchilikda salbiy fikr uyg‘otishga zo‘r berib urindi. Shunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qat‘iyat bilan, O‘zbekiston o‘z Qurolli Kuchlariga ega ekanini va ittifoqqa tegishli harbiy okrugning hududimizda qolishiga o‘rin yo‘qligini aytadi. Shashti singan general respublika hududidagi harbiy texnika va qurol–yaroqlarni ommaviy ravishda olib chiqib ketish choralarni izlay boshlaydi va 1991 yil 30 dekabrda harbiy texnikalarni xalq xo‘jaligiga sotish bo‘yicha tijorat markazini tuzish haqida buyrug‘ini e‘lon qiladi. Prezident ko‘rsatmasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1992 yil 30 yanvarda maxsus buyrug‘i chiqariladi va mazkur tijorat markazi faoliyati O‘zbekiston hududida to‘xtatib qo‘yiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning shijoati bilan amalga oshirilgan bu qahramonlik natijasida Turkiston harbiy okrugi tasarrufida bo‘lgan respublikalar ham o‘z milliy armiyasiga asos solish imkoniyatiga ega bo‘ldi[5].

Mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatning o‘zi O‘zbekistonga Qurolli Kuchlarga asos solinishining tarixiy zarurati sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Mustaqillik himoyasi

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

yo'lida o'z armiyasini tuzishga qaror qilgan O'zbekiston bu yo'lda sobitqadamlik bilan bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 10 sentabrdagi farmoniga binoan Mudofaa ishlari vaziri ayni vaqtda Milliy gvardiya qo'mondoni ham etib tayinlandi.

### - Tahlil va natijalar (Analysis and results).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktabrdagi qaroriga binoan Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va nizomi tasdiqlandi. Mudofaa ishlari vazirligi mahalliy harbiy boshqaruv tizimlari, Fuqarolar mudofaasi shtabi va armiya safidan tashqaridagi xizmatning maxsus boshqarmasi, Respublika DOSAAF tashkiloti negizida tashkil qilindi (keyinchalik DOSAAF “Vatanparvar” tashkilotiga aylantirildi). Keyinchalik Turkiston harbiy okrugining boshqaruv organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmasi hamda ularning joylardagi quyi bo'linmalari tuzildi[6].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992 yilning 10 yanvarida “O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining harbiy qismlari va o'quv muassasalarini O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olish to'g'risida”, 14 yanvarda “O'zbekiston Respublikasi huddida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida” qarorlar qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sobiq Ittifoqqa qarashli Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklarining qismlari, birlashmalari, qo'shilmalari, oliy o'quv yurtlari, harbiy tuzilmalari mamlakatning qonuniy tassarrufiga olinishi belgilandi.

1992 yil 24 martda O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan chegara qo'shinlari bo'linmalari haqida”gi Farmoni bilan respublika Milliy xavfsizlik xizmati qoshida chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi va Markaziy Osiyo chegara qo'shinlari bo'linmalari uning tasarrufiga o'tkazildi[7].

O'zbekiston Respublikasi mudofaa ishlari bo'yicha Vazirligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 3 iyulda bo'lib o'tgan sessiyasida yosh mustaqil davlatning mudofaa sohasidagi siyosatining asoslari belgilandi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasining “Mudofaa to'g'risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”, “Harbiy qasamyod to'g'risida” va “Muqobil xizmat to'g'risida”gi qonunlari qabul qilindi. Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari qurilishi uchun huquqiy asos bo'ldi.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida 1995 yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 3 sessiyasida Harbiy Doktrina qabul qilindi. Unda O'zbekistonda davlatning mudofaa sohasidagi harbiy siyosatining asosiy yo'nalishlari o'z aksini topdi. Umumdavlat ahamiyatiga molik ushbu hujjatda O'zbekiston Respublikasi harbiy siyosatining asoslari, harbiy qurilish hamda faoliyatdagi asosiy tamoyil va ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlat rahbarlarining 1992 yil 20 martda Kiyev shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuvida yana harbiy masala ko'tarilib, sobiq Ittifoq tizimidagi havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shinlari, ta'minot qismlari markaz tomonidan 1992 yil 1 maydan mablag' bilan ta'minlanmasligi bildirildi.

## - Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Bundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 18 maydagi “O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shinlari, ta'minot qismlari haqida”gi Farmoni bilan ushbu qo'shin turlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 12 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo hujumiga qarshi harbiy qismlar haqida”gi, 13 noyabrda “O'zbekiston Respublikasi hududida joylashga kimyoviy harbiy qismlari haqida”gi Farmoni bilan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turdagi qismlar respublika tasarrufiga o'tkazildi va sifat jihatidan takomillashtirildi[8]. Shu tariqa mamlakatimizda mudofaa tizimi shakllantirildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Tatarinov V. Armiya va o'zim haqimda // O'qituvchilar gazetasi. 1989 yil 11 yanvar.
2. O'zSSR Oliy Soveti Qarori. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining “Umumiy harbiy majburiyat to'g'risida”gi SSSR Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir takliflari haqida. – №38. 1990 yil 31 mart // O'zSSR Oliy Soveti Axborotnomasi. – №10–11 (1168). – B. 42–44.
3. O'zbekiston SSR Oliy Sovet prezidumining Qarori “O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1990 yil 31 martida qabul qilingan “O'zbekiston SSR Oliy Sovetining umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi SSR Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir takliflari to'g'risida”gi Qarorining amalga oshirishning borishi haqida.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

1990 yil 5 may – №61. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti vedomostlari. – №13–15. (1170).  
– B. 5.

4. Tatarinov V. Armiya va o‘zim haqimda // O‘qituvchilar gazetasi. 1989 yil 11 yanvar.

5. Jumhuriyat yoshlarini armiyaga chaqirishni va ularning xarbiy xizmatini o‘tashini takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Jumhuriyati Prezidentining farmoni. UP-52 04. 09.1990 y.

6. Ziyayeva D.X. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. - T.: “Sharq”, 2012.B. 224.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir” risolasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2012. B.109

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. “T.: O‘qituvchi” 2012. B.5.

9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. T., O‘zbekiston.B. 47

10. ERALOV A. BUXORO VILOYATIDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.2. – C. 8-11.

**Research Science and  
Innovation House**